

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY-ME’YORIY BAZASI VA AMALIY
HOLATI**

*Ziyabov Ag‘zam Rustamjon o‘g‘li
Bank-moliya akademiyasi magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda islom moliyasi tamoyillari asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Islom moliyaviy vositalarining (sukuk, mudaraba, musharakha va boshqalar) ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Xalqaro tajribalar asosida islom moliyasi yordamida yashil loyihalarni moliyalashtirish istiqbollari baholangan hamda O‘zbekiston sharoitida ushbu yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: islom moliyasi, yashil iqtisodiyot, sukuk, moliyalashtirish, barqaror rivojlanish, ekologiya.

Аннотация: В статье анализируются возможности развития зеленой экономики в Узбекистане на основе принципов исламских финансов. Рассмотрена роль исламских финансовых инструментов (сукук, мудараба, муширака и др.) в обеспечении экологической устойчивости. На основе международного опыта оцениваются перспективы финансирования зеленых проектов с помощью исламских финансов и разрабатываются предложения по развитию данного направления в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: исламские финансы, зеленая экономика, сукук, финансирование, устойчивое развитие, экология.

Abstract: This article examines the opportunities for developing a green economy in Uzbekistan based on the principles of Islamic finance. The role of Islamic financial instruments (sukuk, mudarabah, musharakah, etc.) in ensuring environmental sustainability is discussed. Drawing on international experience, the prospects of financing green projects through Islamic finance are evaluated, and recommendations for advancing this field in the context of Uzbekistan are proposed.

Keywords: Islamic finance, green economy, sukuk, financing, sustainable development, ecology.

Bugungi kunda “yashil iqtisodiyot” konsepsiysi istiqboldagi barqaror rivojlanishning asosiy omili sifatida qaralmoqda. Ushbu jarayonni harakatga keltiruvchi asosiy kuch esa “yashil” texnologiyalarga yo‘naltirilayotgan investitsiyalardir. Bunday texnologiyalar energiya va resurslardan tejamkor foydalanish, uglerod chiqindilarini kamaytirish, muqobil energiya manbalarini keng

joriy etish, ekologik toza qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Natijada iqtisodiyotning atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda rivojlanishi hamda insoniyatning ekologik xavfsizligi ta’minlanadi. Shubhasiz, bunday maqsadlarga erishishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida “resurs talab qiluvchi iqtisodiyot modeli” ortiqcha xarajatlarning ko‘payishi va ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarga yechim sifatida Yevropa mamlakatlari “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini ishlab chiqishni ustuvor vazifa sifatida belgilaganlar. Hozirgi davrda bir qator iqtisodchi olimlar yashil iqtisodiyotning mazmun-mohiyatini turlicha talqin qilayotgan bo‘lsalar-da, yagona konseptual yondashuv hali to‘liq shakllanmagan. Umuman olganda, yashil iqtisodiyot insonlarning turmush farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat natijasi sifatida izohlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda resurslardan samarali foydalanish orqali raqobatbardoshlikni oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qashshoqlikni kamaytirish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlash asosiy vazifa hisoblanadi.¹

Yashil iqtisodiyot nazariyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra bir qator tamoyillarga asoslanadi. Avvalo, unda iste’mol qiymati va mahsulot sifati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ikkinci muhim jihat tabiiy oqimlarga muvofiqlikni ta’minlashdir. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan chiqindilar qayta foydalanishga yaroqli bo‘lishi talab etiladi. Yashil iqtisodiyot nafaqat samaradorlik, balki nafislik va ko‘p funksionallikka ham urg‘u beradi.

Mazkur nazariyaning boshqa asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: faoliyatning qamrov darajasini to‘g‘ri belgilash, tabiiy va iqtisodiy tizimlarda turli xillikni ta’minlash, mustaqillik va o‘z-o‘zini tashkil etish qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash. Bundan tashqari, iqtisodiy jarayonlarda ishtirokchilik tamoyillarini kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiyani rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot inson ijodkorligi va shaxsiy rivojlanishiga keng imkoniyat yaratishi, hamda sun’iy muhitning strategik o‘rni, landshaft va fazoviy dizayn bilan uyg‘unlashgan holda shakllanishi lozim.

Yashil iqtisodiyot nazariyasining asosiy tamoyillari

| Tamoyil | Mazmuni |
|---|--|
| Iste’mol qiymati va sifatning ustuvorligi | Mahsulot va xizmatlarda nafaqat miqdor, balki ularning sifat va barqarorligi asosiy mezon sifatida qaraladi. |

¹ Кучеров А.В., Шибилева О.В. Концепция «зеленой» экономики: основные положения и перспективы развития // Молодой ученый 2014, № 4, с.561 – 563.

| | |
|---|--|
| Tabiiy oqimlarga ergashish | Iqtisodiy jarayonlar tabiat qonuniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi, tabiiy muvozanatning buzilmasligi ta'minlanadi. |
| Chiqindilarning iste'molga tengligi | Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilar qayta ishlanib, ikkilamchi resurs sifatida iqtisodiyotga qaytariladi. |
| Nafislik va ko'p funksionallik | Texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar samarali bo'lishi bilan birga estetik jihatdan ham ahamiyat kasb etadi. |
| Tegishli qamrov darajasi | Yashil iqtisodiyot choralari barcha soha va hududlarga nisbatan muvozanatli darajada tatbiq etilishi lozim. |
| Turli xillik | Ekologik va iqtisodiy tizimlarda biologik hamda ijtimoiy xilma-xillikni saqlab qolish va rivojlanirish zarur. |
| Mustaqillik va o'z-o'zini tashkil etish | Tizimlarning o'zini-o'zi boshqarish, qayta tiklash va innovatsion yondashuvlarga moslashish qobiliyati qo'llab-quvvatlanadi. |
| Ishtirokchilik va to'g'ridan-to'g'ri demokratiya | Qaror qabul qilish jarayonlarida fuqarolarning faol ishtiroki va demokratik boshqaruv mexanizmlari ustuvor bo'ladi. |
| Inson ijodkorligi va rivojlanishi | Yashil iqtisodiyot inson salohiyatini ro'yobga chiqarish, ijodiy faoliyat va bilimni oshirishga keng imkoniyat yaratadi. |
| Sun'iy muhitning strategik o'rni | Landshaft va fazoviy dizayn orqali sun'iy muhitni tabiat bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. |

Yashil iqtisodiyot milliy farovonlikni oshirish, energiya resurslaridan muqobil foydalanishni rag'batlantirish hamda ekologiyaga zarar yetkazuvchi chiqindilar hajmini kamaytirish orqali atrof-muhitga yo'naltirilayotgan xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiladi. Shu sababli, xalqaro miqyosda yashil iqtisodiyot barqaror taraqqiyotga erishish va qashshoqlikni bartaraf etishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Biroq, ushbu modelga o'tish jarayoni qator muammolar bilan ham bog'liqdir. Jumladan, ilg'or texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, zarur miqdordagi investitsiyalarni jalg etishdagi qiyinchiliklar, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy yordam ajratilishida qo'shimcha shart-sharoitlarning

mavjudligi, shuningdek, oltin qazib olish jarayonida simobdan foydalanish kabi salbiy omillar yashil iqtisodiyotning to‘liq joriy etilishiga to‘sinqlik qilishi mumkin.²

“Yashil” iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:³

- tabiiy resurslardan samarali foydalanish;
- tabiiy kapitalni oshirish va ifloslanishni kamaytirish;
- biologik xilma-xillikning yo‘qolishining oldini olish;
- daromadlarni oshirish va bandlikni ta’minalash.

Yashil iqtisodiyot - bu innovatsion “yashil” texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror taraqqiyotga erishishni ta’minalovchi iqtisodiy model hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar energiya va tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish, shuningdek, uglerodga asoslangan energiya manbalaridan foydalanishni bosqichma-bosqich kamaytirishni nazarda tutadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiysi tarkibida “yashil ipoteka”, “yashil kreditlar”, ekologik yo‘naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish, uglerod va ekologik fondlar, shuningdek, “yashil sug‘urta” kabi mexanizmlar mavjud.

Bugungi kunda iqtisodiy o’sish sur’atlari yuqori bo‘lgan davlatlar, jumladan, Braziliya va Xitoyda yashil iqtisodiyotga o‘tish imkoniyatlari kengroq namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayon qisqa muddatda hal bo‘ladigan masala emas. Yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o‘tish uchun davlat tomonidan institutsional va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, xususiy investorlar va iste’molchilarning faol ishtirokini ta’minalash zaruriy shart hisoblanadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga bosqichma-bosqich o‘tish konsepsiysi quyidagi uch davrni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich (2013-2020 yillar)da tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ikkinci bosqich (2020-2030 yillar)da yuqori texnologiyalar bazasini shakllantirish va ularni keng joriy etish ko‘zda tutiladi. Uchinchi bosqich (2030-2050 yillar)da esa tabiiy resurslardan foydalanish bilan bir qatorda ularning qayta tiklanishiga erishish asosiy vazifa qilib belgilangan.

Mazkur konsepsiyanı amalga oshirish yo‘nalishlari sifatida suv resurslaridan oqilona foydalanish, yuqori hosildorlikka asoslangan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, chiqindilarni samarali boshqarish, energiya tejamkorlik tizimlarini takomillashtirish, havo ifloslanishini kamaytirish hamda ekotizimlarni barqaror boshqarish belgilangan.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Italiyada yashil iqtisodiyot sohasida muayyan natijalarga erishilgan. Masalan, mamlakatdagi korxonalarning qariyb 25 foizi yashil texnologiyalarga sarmoya kiritgan bo‘lib, bu resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va qo‘silgan qiymat o‘sishini ta’milagan. Yevropaning Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va Buyuk Britaniya kabi davlatlarida turizm sohasiga talab

² Булганов Ю.В., Набок С.Д. Взаимообусловленность понятий «зеленая» экономика, «зеленый» рост и устойчивое развитие // Политические науки, 2017, № 5. С. 89 – 91.

³ Ботавина Р.Н. Экологические аспекты «зеленой» экономики в системе экономического роста России // Мир, 2016, Т.7, № 4, с.142 – 147.

yuqori darajada bo‘lib, tabiiy resurslarni asrash ularning iqtisodiy o‘sishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Shu bois Yevropada mehmondo‘stlik sektorini rivojlantirish uchun energiya va resurslarni tejash bo‘yicha katta imkoniyatlar mavjud.⁴

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari umumiyligi energiya iste’molining 20 foizigacha bo‘lgan qismini muqobil manbalardan ta’minlashni maqsad qilgan. Masalan, Daniyada energiya iste’molining 21,3 foizi shamol energiyasi hisobiga ta’minlanadi.⁵ Janubiy Koreyada esa yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda sanoat va energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yashil transportni joriy etish, chiqindilarni qayta ishslash va qirg‘oq hududlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

AQSh yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasida muqobil energetika markaziyi o‘rin tutib, 2030 yilgacha energiya ta’minotining 65 foizini shu manbalar hisobiga qoplash maqsadi qo‘yilgan.⁶ Buyuk Britaniyada esa yashil loyihalarni joriy etish orqali iqtisodiyotda qariyb 100 mingta yangi ish o‘rnini yaratish muhim vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, ayrim Yevropa davlatlari 2035–2050 yillarda uglerodsiz ishlab chiqarish tizimiga to‘liq o‘tishni hamda energiya tashuvchilardan voz kechishni mo‘ljallamoqda.⁷

Ma’lumki, O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish sohasida muhim huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-sun qarori bilan 2030-yilgacha mamlakatda “yashil iqtisodiyot”ga bosqichma-bosqich o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi tasdiqlangan.

Mazkur dastur doirasida quyidagi strategik maqsadlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yilgi darajaga nisbatan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 15 GVt ga yetkazish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarishda ularning ulushini 30 foizdan ortiq darajaga chiqarish;
- sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan energiya sarfini 30 foizga kamaytirish, bunda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishga alohida e’tibor qaratish;

⁴ Щетинина Н.И. «Зеленая» экономика в деятельности гостиничного бизнеса стран ЕС // Вестник МГЦИО университета. 2013, с. 254 – 260

⁵ Аскаров И.М., Егорова М.С. Проблемы финансирования перехода на «зеленую» экономику // Молодой ученый. 2015. с. 396 – 399.

⁶ Егорова М.С. Содержание «зеленой» экономики: цели и задачи // Современная экономика: проблемы и решения, 2014, с.154 – 167.

⁷ Сенин А.С., Клепова Т.А. «Зеленая» экономика как инструмент решения экологических проблем» Экономика и социум: современные модели развития. 2016, № 1, с.95 – 98

- iqtisodiyotning barcha yo‘nalishlarida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va 1 million gektargacha maydonda suvni tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish;
- yiliga 200 milliondan ortiq daraxt ko‘chatlarini ekish orqali umumiy yashil hududlarni kengaytirish va shaharlarda yashil maydonlar ulushini 30 foizdan yuqoriga yetkazish;
- qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan:

“O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish doirasida Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yiliga oid davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2025-yil 30-yanvar, PF-16-son);⁸

“O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (2024-yil 30-noyabr, 800-son);⁹

“O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2024-yil 5-iyun, PQ-213-son);¹⁰

“2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2022-yil 2-dekabr, PQ-436-son);¹¹

“2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son).¹²

Mazkur hujjatlar mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish, xalqaro standartlarga mos ravishda milliy qonunchilikni takomillashtirish va barqaror rivojlanishga erishishni ta’minlashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda 2023-2024-yillarda amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari:

⁸ <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>

⁹ <https://lex.uz/uz/docs/-7245895>

¹⁰ <https://lex.uz/uz/docs/-6956101>

¹¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6303230>

¹² <https://lex.uz/uz/docs/-4539502>

“Yashil energiya sertifikatlari” tizimi joriy etildi: Mazkur tizim qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ekologik toza texnologiyalarni tasdiqlash, shuningdek, jarayonlarni kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu tizimga muvofiq, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqaruvchilar “yashil sertifikat”ni yakuniy iste’molchilarga yoki ishlab chiqaruvchilarga sotish orqali energiyaning ekologik tozaligiga kafolat beradi. Bu esa mahsulot eksporti va savdo hajmini kengaytirish, xalqaro moliya institutlaridan “yashil” investitsiyalar va kreditlarni jalb etish imkonini yaratadi.

Bir dona sertifikat qayta tiklanuvchi manbalardan ishlab chiqarilgan 1000 kWt/soat elektr energiyasini ifodalaydi. O‘zbekistonda birinchi marta “O‘zbekgidroenergo” AJ ushbu sertifikatlarni birja savdolarida taklif qildi va natijada 48 mingdan ortiq sertifikat sotildi. Xaridorlar orasida “Energoqurilishindustriya”, “O‘zsanoatqurilishbank”, “UzBAT”, “Click” hamda “Worleyparsons” kabi kompaniyalar mavjud. Sertifikatlarni ommalashtirish maqsadida “Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi” xususiy sektor va davlat korxonalari bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda hamda xalqaro konferensiyalar va seminarlarda faol ishtirok etmoqda.

Jahon banki bilan hamkorlikda iCRAFT loyihasi amalga oshirildi: Umumiy qiymati 46 mln AQSH dollari bo‘lgan ushbu loyiha Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib uglerod savdosini moliyalashtirish va energetika sohasida siyosatni qo‘llab-quvvatlash dasturi sifatida e’tirof etildi. Loyiha issiqxona gazlarini kamaytirish, energetika bozorini tartibga solish, MRV tizimini joriy etish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun quyosh panellarini o‘rnatishni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan. 2024-yilda Jahon banki tomonidan 7,5 mln AQSH dollari miqdorida birinchi transh mablag‘ ajratildi.

Iqlim o‘zgarishi sharoitida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bo‘yicha CCDR loyihasi amalga oshirildi: Jahon banki bilan hamkorlikda tayyorlangan ushbu milliy baholash hisobotining e’lon qilinishi O‘zbekistonga xalqaro arzon “yashil” moliyaviy manbalarni jalb etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Issiqxona gazlari savdosi bo‘yicha tartibga solish mexanizmlari ishlab chiqildi: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Xalqaro issiqxona gazi savdosi bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom” tasdiqlandi. Mazkur hujjat Parij bitimining 6.2 va 6.4-moddalariga muvofiq issiqxona gazlari savdosini tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Milliy shaffoflik tizimi (MRV) joriy etildi: Prezident qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari” tasdiqlandi. Ushbu tizim milliy miqyosda belgilangan hissa (NDCs)larni amalga oshirish jarayonini kuzatish va baholash imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro uglerod bozorlarida ishtirok etish hamda iqlim loyihalariga

xorijiy donorlar va investorlarni jalb qilish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu doirada 70 dan ortiq tashkilotdan 100 nafardan ortiq mutaxassislar ishtirokida onlayn treninglar va o‘quv-seminarlar o‘tkazildi.

Germaniya hamkorlik tashkiloti bilan qo‘shma loyiha amalga oshirilmoqda: “O‘zbekistonda xususiy sektorga yordam va siyosat bo‘yicha maslahatlar” loyihasi doirasida 80 nafar mutaxassis, jumladan 30 nafar xotin-qiz “yashil sanoat siyosati” bo‘yicha o‘qitildi. Hamkor vazirliklarga to‘rtta strategik hujjat ishlab chiqishda ko‘mak ko‘rsatildi. Shuningdek, 25 ta kichik va o‘rta korxonaga, jumladan, ayollar rahbarligidagi uchta korxonaga CO₂ emissiyasini kamida 10% ga qisqartirishga yordam berildi.

Mamlakatimizda 2025-yil va kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlar

Dekarbonizatsiya va yashil rivojlanish strategiyasi (LTS) ishlab chiqish: Jahon banki va YETTB bilan hamkorlikda uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilmoqda. Unda uglerod neytralligiga erishish uchun zarur chora-tadbirlar, tarmoqlar kesimida amalga oshiriladigan loyihamalar va investitsiya rejasini belgilab beriladi.

“Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to‘g‘risida”gi qonun loyihasini tasdiqlash: 2023-2026-yillarda issiqxona gazlarini tartibga solish infratuzilmasi bosqichma-bosqich joriy etiladi. Jumladan, emissiyalarni hisobga olish, davlat kadastri va uglerod birliklari reyestrini yuritish, shuningdek, qisqartirish bo‘yicha davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yo‘lga qo‘yiladi.

Milliy miqyosda belgilangan hissalarni (NDCs) yangilash: 2021-yilda O‘zbekiston BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konvensiyasiga o‘z NDC hujjatini taqdim etgan edi. Parij kelishuviga muvofiq, ushbu hujjat har 5 yilda yangilanib borilishi shart. Shu munosabat bilan, 2025-yilda O‘zbekistonning yangi NDC hujjati ishlab chiqilib, BMTga taqdim etiladi.

O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan huquqiy-me’yoriy baza izchil shakllantirilmoqda. 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi to‘g‘risidagi qonunlar, shuningdek Prezident qarorlari va farmonlari ushbu jarayonni huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Shu bilan birga, xalqaro hujjatlar, xususan, Parij kelishuvi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashgan milliy dasturlar mamlakatning global iqlim o‘zgarishi jarayonidagi mas’uliyatini belgilab bermoqda.

Amaliy jihatdan esa, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini bosqichma-bosqich shakllantirish bo‘yicha qator loyihamalar amalga oshirilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya stansiyalarining barpo etilishi, “yashil” obligatsiyalar va “yashil energiya sertifikatlari” tizimining joriy etilishi xalqaro tajribaga mos yechim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, mavjud muammolar ham saqlanib qolmoqda: innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishdagi moliyaviy cheklovlar, kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, ekologik madaniyatning pastligi va qabul qilingan huquqiy hujjatlarning ijrosida ayrim kamchiliklarning mavjudligi shular jumlasidan.

Umuman olganda, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning huquqiy-me’yoriy asoslari shakllangan bo‘lsa-da, uning samarali amaliyotini ta’minalash uchun davlatning qat’iy siyosati, xususiy sektorning faol ishtiroki va fuqarolik jamiyati tuzilmalarining keng jalb qilinishi muhim omil hisoblanadi. Bu yo‘nalishda tizimli va izchil islohotlar davom ettirilsa, mamlakatning ekologik xavfsizligi ta’milanib, iqtisodiy rivojlanishning barqaror va raqobatbardosh modeli shakllanishi kutiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Кучеров А.В., Шибилева О.В. Концепция «зеленой» экономики: основные положения и перспективы развития // Молодой ученый 2014, № 4, с.561 – 563.
2. Булганов Ю.В., Набок С.Д. Взаимообусловленность понятий «зеленая» экономика, «зеленый» рост и устойчивое развитие // Политические науки, 2017, № 5. С. 89 – 91.
3. Ботавина Р.Н. Экологические аспекты «зеленой» экономики в системе экономического роста России // Мир, 2016, Т.7, № 4, с.142 – 147.
4. Щетинина Н.И. «Зеленая» экономика в деятельности гостиничного бизнеса стран ЕС // Вестник МГЦИО университета. 2013, с. 254 – 260
5. Аскаров И.М., Егорова М.С. Проблемы финансирования перехода на «зеленую» экономику // Молодой ученый. 2015. с. 396 – 399.
6. Егорова М.С. Содержание «зеленой» экономики: цели и задачи // Современная экономика: проблемы и решения, 2014, с.154 – 167.
7. Сенин А.С., Клепова Т.А. «Зеленая» экономика как инструмент решения экологических проблем» Экономика и социум: современные модели развития. 2016, № 1, с.95 – 98